

SHE'RIY MATNNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

G'ofurova Nazokat Komiljonovna,

O'zbekiston Milliy Universiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 3-tayanch doktoranti

missphoenixgirluzb@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada she'riy matnning lingvopoetik xususiyatlari, uning boshqa nutq uslublari bilan farqlovchi jihatlari, shuningdek, poetik nutqning shakllanishida muhim o'rin tutuvchi vositalar tahlil qilinadi. Xususan, badiiy matnga xos hissiy-bo'yoqdorlik, obrazlilik, modallik, intertekstuallik, yashirin ma'nolilik kabi stilistik xususiyatlar yoritiladi. Shu bilan birgalikda she'riy matnning ritm, intonatsiya va vazn bilan bog'liq jihatlari hamda ularning badiiy-estetik ta'sirni kuchaytirishdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida izohlanadi. Tadqiqotda she'riy matnning lingvopoetik tabiati va uning poetik nutqdagi o'rni haqida xulosalar ham berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Metrik tizim, ritm, intertekstuallik, obrazlilik, badiiy bellistik stillar, modallik, hissiy bo'yoqdorlik, sayqallangan til, texnik resurs, intonatsiya, vazn.

Аннотация. В данной статье анализируются лингвопоэтические свойства поэтического текста, его отличительные черты от других стилей речи, а также средства, играющие важную роль в формировании поэтической речи. В частности, выделяются стилистические особенности, такие как эмоциональная окраска, образность, модальность, интертекстуальность, скрытый смысл, присущий художественному тексту. Одновременно на основе научных источников объясняются аспекты поэтического текста, связанные с ритмом, интонацией и метром, и их важность в усилении художественно-эстетического эффекта. В исследовании также делаются выводы о лингвопоэтической природе поэтического текста и его роли в поэтической речи.

Ключевые слова: Метрическая система, ритм, интертекстуальность, образность, художественные риторические стили, модальность, эмоциональная окраска, отточенный язык, технический ресурс, интонация, метр.

Abstract. This article analyzes the linguopoetic properties of the poetic text, its distinguishing aspects from other speech styles, as well as the means that play an important role in the formation of poetic speech. In particular, stylistic features such as emotional coloring, imagery, modality, intertextuality, hidden meaning inherent in the artistic text are highlighted. At the same time, aspects of the poetic text related to rhythm, intonation and meter and their importance in enhancing the artistic and aesthetic effect are explained based on scientific sources. The study also draws conclusions about the linguopoetic nature of the poetic text and its role in poetic speech.

Keywords: Metric system, rhythm, intertextuality, imagery, artistic rhetorical styles, modality, emotional coloring, polished language, technical resource, intonation, meter.

Kirish. She'riy matn nasriy matndan qadimiyroq tarixga ega hisoblanib, eng dastlabki adabiy manbalar ham she'riy ko'rinishda edi. Katta hajmli epik dostonlarning loy plitalarga bitilgan nusxalari bu fikrlarning yorqin isboti bo'lib, bu epik asarlar bugungi kun tilshunosligida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ammo har qanday asar ham she'riy matn bo'la olmaydi. She'riy matnning o'ziga xos talablari va qonuniyatlari mavjud bo'lib, poetik matn ijodkorlaridan aynan shu qonuniyatlarga rioya qilish talab etiladi.

She'riy matnning asosiy lingvopoetik xususiyati deb metric tizimni eng avval kiritish to'g'ri bo'ladi. Metrik tizim dunyo miqyosida ko'p bora murojaat etiladigan tizim bo'lib, u haqida rus tadqiqotchisi V.E. Xolshevnikov to'xtalib o'tarkan: "Metrik she'r tizimi (yunoncha. μέτρον – "o'lchov") ma'nosini She'riyat o'ziga xos uslubda

yoziladigan, kitobxonning qalbiga kirib boradigan va qalb torlarini chertib, ba'zan kulishga, ba'zan esa iztirob chekishga undaydigan va o'ziga xos uslubda yoziladigan adabiyot maxsulidir. Uning ta'sirchanlik kuchining boshqa matnlardan farqi ham uning uslubidir. Shu o'rinda nutq uslubi haqida tilshunos olim Y.Grot: "Uslub bu tom ma'noda yozuvchining bayonlash xarakteri, bu – nutqqa munosabat, ya'ni yurganingizda gavgangiz qanday harakat qilsa, huddi o'shanga xos bir gap, yozishdagi xusnixat va yuz ifodangizdir, bu har bir yozuvchining individual ko'rinishidir" [2, C. 74-75], deb nutq uslublarning ahamiyati lingvistik va stilistik sijatdan kata ekaniga e'tibor berib o'tadi. Rus tilshunosi R.A.Budagov: "Stilistika har bir rivojlangan tilning jonidir" [1, 375 c.] , – deb ta'rif beradi. Bu gaplardan shu xulosaga kelish mumkinki, stilistika filologiya fanlarining boshida turib, ularning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladi. Jahon tilshunos olimlarining stilistika, nutq uslublari haqidagi shunday gaplariga asoslangan holda dastlab, she'riy matnning uslubi boshqa uslublardan farqlanishini ko'rib o'tmoq lozim, jumladan, "So'zlashuv uslubi insonlarning oilada, ko'cha-ko'yda, g'oya almashinuvi vaqtida foydalaniladigan nutq uslubi hisoblanadi. So'zlashuv uslubi, ko'pincha dialog shaklida bo'ladi" [19, B. 157-161]. Bu nutq uslubiga shevaga oid so'zlar ishlatilish bilan birga til qoidalariga qat'iy amal qilish talab etilmaydi. Publitsistik uslub esa ommaviy axborot vositalari, gazeta, jurnal, televedeniya tili hisoblanadi va bu uslub davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini yoritishga, axborot berishga mo'ljallangan nutq uslubidir. Ilmiy uslub ma'lum bir soha vakillarigina ishlatadigan nisbatan tor doiradagi so'zlardan iborat bo'lib, bu kabi so'zlarni faqatgina o'sha soha vakillarigina ishlatishlari mumkin. "Rasmiy-idoraviy uslub o'ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi" [19, B. 157-161]. Rasmiy idoraviy uslub bu hujjatlar tili bo'lib, unda fikr aniqlik va qisqalik asosida ifodalanadi. Badiiy uslub esa badiiy asarlarning tili hisoblanib, ta'sirchanlik, badiiylik xususiyatlari ustunlik qiladi va bunday uslub kitobxonda estetik zavq va quvonch bag'ishlaydi. V.V. Vinogradov ham nutq uslublarning klassifikatsiyasi haqida: mumkin "Tilning asosiy ijtimoiy aloqa vazifalari aloqa qilish, xabar uzatish va estetik ta'sir ko'rsatish inobatga olingan holda tilning strukturasi umumiy holatda quyidagi stillarga bo'linadi: og'zaki so'zlashuv stili (aloqa qilish funksiyasi), rasmiy muomala, rasmiy ish qog'ozlari va ilmiy stillar (xabar uzatish funksiyasi), publitsistik va badiiy – bellitistik stillar (estetik ta'sir etish funksiyasi)" [4, 6 c]. V.V.Vinogradov badiiy uslubning kitobxonga estetik zavq berishini alohida ta'kidlab o'tadi. She'riy uslub esa badiiy uslubning tarkibiy qismi hisoblanib, she'riy matnga bu tarkibiy qismning asosiy obyekt sifatida qaraladi va bu obyektning vujudga kelishida muhim rol o'ynaydigan bir qancha zaruriy mezonlar ham mavjud. Ayni damda "Nutq uslubining shunday ko'rinishlari borki, ular "sayqallangan til"

holatida namoyon bo‘ladi, ya’ni aniq bir me’zon-o‘lchov, alohida ritm va ohang hamda vazn asosida shakllangan bo‘ladi. Bu poetik nutqdir” [15, B. 10]. Ma’lum bir qonun-qoidaga bo‘ysunadigan lingvopoetik nutq lingvistik nuqtai nazardan til birliklarining tanlanishi, badiiy ma’no ifodalash uchun o‘zaro uyg‘unlik hosil qilishidan vujudga keladi. O‘ziga xos mezonlarga rioya qilish asosida, jumladan, ritm, ohang, vazn qonun-qoidalari asosida yaratilgan nutq uslubida tilshunoslikda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan she’riy matn yaratiladi. Ayni damda “sayqallangan til” iborasi Aristotelga tegishli bo‘lib, uning o‘zi bu haqda shunday deydi: “Sayqallangan til deganda men ritm, garmoniya va musiqiylikka ega bo‘lgan tilni tushunaman” [9, B. 16]. She’riyat esa aynan Aristotel nazarda tutgan ritm + garmoniya + musiqiylikdan tashkil topgan poetik nutqdir. Poetik nutq ya’ni she’riy matnning boshqa san’atlar hamda boshqa nutq uslublaridan farqi shundaki, she’riyatda bir paytning o‘zida bir necha xil tasviriy ifoda vositalaridan foydalanish mumkin.

Metodlar va o‘rganilish darajasi. She’riy matnning lingvopoetik xususiyatlari jahon va o‘zbek tilshunosligida ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, V.E.Xolshevnikov she’r tizimlari, Y.Grot nutq uslubi, R.A.Budagov stilistika, V.V.Vinogradov funksional uslublar masalalarini tadqiq etishgan. D.Ashurova va M.Galiyeva badiiy matnning stilistik hamda lingvopoetik xususiyatlarini yoritgan bo‘lsalar, D.Atridj, G.P.Torsuyev, T.Boboyev, A.Ulug‘ov va A.Fitrat ritm, intonatsiya hamda vazn masalalariga oid ilmiy qarashlarni ilgari surgan.

Mazkur tadqiqotda tavsifiy, lingvopoetik va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida she’riy matnning lingvopoetik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, hissiy-bo‘yoqdorlik, obrazlilik, modallik, intertekstuallik, ritm, intonatsiya va vazn kabi unsurlarning poetik nutqdagi o‘rni yoritildi.

Tadqiqot natijalari. She’riy matn o‘ziga xos uslubda yozilishi, bo‘yoqdorlik, stilistik vositalar, mubolag‘a va ko‘chimlari bilan ham ajralib turish jarayonida badiiy uslubning bor jozibasi aynan mana shu yerda ko‘rinadi, shuningdek, she’riy matnning lingvopoetik xususiyatlariga ham xos deb qaraladigan badiiy matnning quyidagi xususiyatlari D.Ashurova hamda M.Galiyeva tadqiqotlarida ajratib ko‘rsatiladi: [10, P. 32-33]



Badiiy matnning stilistik xususiyatlari

Hissiy-bo‘yoqdorlik badiiy asarning eng asosiy xususiyatlaridan bo‘lib, o‘quvchiga qay darajada ta‘sir etganini ifodalab kelish bilan birga “hissiy-bo‘yoqdorlik kayfiyat, his-tuyg‘ular va ehtiros kabi emotsional holatlar yig‘indisini ifodalaydi” [10, P. 32-33]. Kitobxonning asardan ta‘sirlanishi, kulishi, ko‘z yosh to‘kishi, badiiy asar voqealari ichida yashashning barchasi asarning hissiy ta‘sirchanligi natijasida yuzaga keladi.

Obrazlilik badiiy asarni o‘quvchi ongida tasavvur qilishiga keng imkoniyat yaratadigan xususiyat bo‘lib, “u ko‘pincha o‘quvchi tasavvurida mohirlik bilan voqealarni jonlantirgani uchun ham “aytmasdan ko‘rsatish san‘ati” deb nomlanadi”[12, P. 77-79]. Ushbu xususiyat kitobxonga badiiy matndagi so‘zlar orqali keng tasavvur qilish, “ongida jonlantirish” imkoniyatini beradi. D.Ashurova obrazlilikning inson sezgi a‘zolari vositasida tasavvur qilish mumkin bo‘lgan 5 turga ajratadi:

- “Visual obrazlilik– tasavvurda nimanidir ko‘rish orqali obrazlar;
- Eshitish orqali obrazlar;
- Ushlab ko‘rish yoki teri sezgisi orqali his etiladigan obrazlar;
- Hid bilish sezgisi orqali his etiluvchi obrazlar;
- Ta‘m bilish sezgisi orqali his etiluvchi obrazlar;
- Harakatlanish bilan bog‘liq obrazlar”[10, P. 54].

Yuqorida keltirib o‘tilgan 6 xil obraz yaratish, his qilish sezgilari orqali kitobxon badiiy asar obrazlarini xayolan jonlantiradi va his qiladi. Yashirin (tag) ma‘nolilik badiiy matnning lingvistik imkoniyatlaridan foydalanib, ijodkor o‘z fikr va g‘oyalarini yashirin ifodalash usulidir.

Modallik xususiyati ham badiiy matnni lingvistik jihatdan takomillashtiruvchi vosita sifatida qaralib, u “so‘zlovchining propozitsiya yoki ifodalanayotgan fikrga munosabatini bildiradigan grammatik kategoriya. Ushbu kategoriya doirasida majburiyat, zaruriyat, mumkinlik, ruhsat va imkoniyat kabi semantik xususiyatlar voqelanadi” [16, B. 166-167]. Ushbu xususiyatlar badiiy matnga etiket, yumshoqlik, yoki aksincha, qat‘iyat ma‘nolarini singdirishi bilan ahamiyatlidir.

Intertekstuallik – matnlar o‘rtasidagi bog‘liqlik xususiyati bo‘lib, ijodkor ma‘lum bir asar yoki personajga ishora qilishi mumkin. “Ushbu tushuncha dastlab 1966-yilda Y.Kristeva tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan bo‘lib, ushbu atama badiiy matnning undan avval yaratilgan matnlar bilan o‘zaro bog‘liqligini ifodalaydi” [8, P.367]. Ushbu ta‘riflardan anglash mumkinki, intertekstuallik o‘quvchining avvalgi bilimlariga ishora qilib kelishi bilan ahamiyatlidir.

Badiiy matnning keltirib o‘tilgan stilistik xususiyatlaridan tashqari she‘riy matn talab etadigan eng zaruriy mezonlardan sifatida biri bu ritm, qofiya, vazn kabilarni ham aytib o‘tish mumkin. Ingliz tilshunosi D.Atridj o‘z kitobida shunday deydi: “She‘rni mazmunli qilish bilan birga, jarangdorligini oshiruvchi vosita – bu ritmdir: ritm nutqni oldinga undovchi, muntazam va doimiy to‘lqinlar shaklida davom ettiruvchi uzluksiz harakat hisoblanadi. Yaratilgan she‘riy matnni anglash va undan bahra ola bilish – uning

ritmini his qilish, anglash, shuningdek, unga faol ishtirokchi bo'lishni ham talab etadi. Ritm she'rni tashkil etuvchi unsurlardan biri sifatida emas, balki uning o'zagini tashkil etuvchi markaziy qismi sifatida qaralsa ayni muddao bo'lardi". Olim bu fikri orqali ritmni "harakat" deb ta'kidlab, ritmning she'riy matn uchun asosiy o'rinda ekanini ko'rsatib bergan. Nigeriyalik tilshunoslar A.Bridjet va M.Adaobi esa ritmni "texnik resurs" deb ta'kidlashadi: "Ritm" yunon tilidan ingliz tiliga tarjima qilinganda "flow" ya'ni "oqim" degan ma'noni bildiradi. U she'rning eng muhim elementlaridan biri bo'lgani uchun shoirning texnik resurslaridan hisoblanadi" [7, P.37]. Ritmsiz she'r bo'lmagani uchun ham A.Bridjet va M.Adaobi ritmni "eng muhim element" ekanini ta'kidlashgan. Ritm she'riy matnga musiqiylik bergani uchun ham ayni damda uni nazmdagi musiqa deb atash ham mumkin, shuningdek, ritm she'riy matn uchun talab etiladigan lingvopoetik xususiyatlar bilan ham uzviy bog'liq bo'lib "Nafaqat ritm nasr va nazm uchun birdek muhim omil hisoblanadi, balki shu bilan birgalikda u o'zini urg'u va pauzalar uyg'unligida namoyon qiladi" [6, P.6] . Ushbu ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, ritm she'riy matn o'qilayotgan paytda o'zini namoyon qiladi va ana shu to'xtamlar she'rning ta'sirchanlik kuchini oshirib, odatdagi nasriy matnlardan farqlab turadi. O'zbek olimlari ham bu tushuncha borasida o'z qarashlarini bildirib o'tganlar, jumladan, tadqiqotchi L.Tashmuxamedova ta'biriga ko'ra esa: "She'rning alohida belgilaridan dastlabkisi ritm. Qofiyasiz, misralarida bo'g'inlari miqdori har xil she'rlar bo'lishi mumkin. Biroq ritmsiz she'r yo'q. Ritm – she'rning asosi. Ritm – she'riy nutqning ko'rki. U muayyan vazndagi nutq bo'laklarining misralar, bandlarda ma'lum bir tartibda takrorlanishidan hosil bo'lgan zarbli ohangdorlikdir. Bu zarbli ohangdorlik inson sezgilariga ta'sir qiladi" [17, B.80]. Ritm haqida yana ham soddaroq tushuncha beradigan bo'lsak, "She'r misralaridagi bir-biriga teng nutq bo'laklarining bir tekisda izchil takrorlanib kelishidan paydo bo'ladigan ohangdoshlik (zarb)" [11, B.21]. Ritm bu urg'uli va urg'usiz bo'g'inlarni bir misrada ohangdoshlik kasb etib kelishidir, ayni paytda bu ohangdoshlikni esa she'r o'qilayotgan paytdagina sezish mumkin, ya'ni o'qilayotgan she'rdagi o'ynoqlik, ohangdorlik va musiqiylikni aynan ritm ta'minlab beradi.

She'riy matnning navbatdagi xususiyatlaridan biri intonatsiya hisoblanib, she'riy matn so'zlashuv uslubi yoki nasriy matndan o'zgacha ohang bilan farqlanadi. Rus tilshunosi G.P.Torsuyevning qarashlariga ko'ra: "Intonatsiya – bu nutqda balandlik, kuch, tembr hamda tempning murakkab tuzilmasi hisoblanib, u ma'no ifodalashning eng muhim vositalaridan biridir" [3, 212 p.]. She'riy matnning ta'sirchanligini, hissiylikni oshirishdagi eng muhim elementlardan biri ham intonatsiya hisoblanishi bilan birgalikda, ayni damda ushbu element ritm, pauza kabi vositalar bilan she'riy matnning yaxlitligini ta'minlaydi. T.Boboyev ritmni vazn bilan uzviy bog'liqlikda ekaniga alohida ahamiyat beradi: "Agar majoziy ma'noda ritmni she'rning qalbi deb oladigan bo'lsak, mana shu ritmning yaratuvchisi vazndir. "Vazn" so'zi arabchadan olingan bo'lib "o'lchov, tarozi" kabi ma'nolarni anglatadi" [11, B.33]. Ritm vaznda namoyon bo'lar ekan, ya'ni she'riy

matn, albatta, biror vaznda yoziladi, shu bois ham she'riy matn va ritm bir-birisiz to'laqonli tasavvur etib bo'lmas bir-biriga bog'liq bo'lgan hodisalar hisoblanadi. She'riy matnning ritm bilan uzviy bog'liqlikdagi yana bir xususiyati unda vaznning mavjud bo'lishidir.

She'riy matnning ritm bilan uzviy bog'liqlikdagi yana bir xususiyati unda vaznning mavjud bo'lishidir. Turkiy xalqlarga xos bo'lgan vazn bu barmoq vaznidir, keyinchalik mumtoz adabiyotda ishlatila boshlangan aruz vazni esa arab tili va adabiyotining ta'siri tufayli keng ahamiyat kasb etgan. Barmoq vaznida misralarda bo'g'inlar miqdori tengligiga ahamiyat qaratilsa, aruz vaznida esa hijolarning uzun yoki qisqa o'qilishi ahamiyatlidir. A.Ulug'ov fikriga ko'ra: jahon adabiyotida to'rtta she'r tizimi, ayniqsa, keng tarqalgan. Bular: *Sillabik she'r sistemasi* – bo'g'inlar miqdoriga, *Metrik she'r sistemasi* bo'g'inlarning uzun-qisqaligiga, unlilar holatiga asoslanadi. *Tonik she'r sistemasida* urg'uli hijolar o'rtasidagi urg'usiz bo'g'in nisbati erkin bo'ladi. *Sillabo-tonik she'r sistemasi* bo'g'inlarning urg'uli, urg'usizligiga, ularning miqdoriga va tartibiga, izchil takrorlanishiga asoslanadi" [19, B.189]. Olimning gaplariga ko'ra she'riy matn qaysi vaznda yozilishiga ko'ra 4 turga bo'linadi: bo'g'inlarning she'rdagi miqdoriga ko'ra – sillabik, urg'uli yoki urg'usiz o'qilishi – tonik, baland yoki past ohangda talaffuz qilinishi – melodik, cho'ziq yoki qisqa o'qilishi esa – metrik kabi she'r tizimi deb qabul qilinadi. O'zbek she'riyati shu to'rtta turdan odatda sillabik, ya'ni misradagi bo'g'inlarning miqdoriga asoslangan she'riy tizimdan foydalanadi. A.Fitrat barmoq vaznini "milliy vazn" deya ataydi : "Milliy vaznimizda asos so'z bo'g'imlarining sanog'idir. Bir baytning birinchi misra'i necha bo'g'im esa, ikkinchi misra'i ham shuncha bo'g'im bo'ladi"[13, B.25]. Shoir barmoq vazni haqida so'zlarkan, mazkur vaznning qay darajada qadimiy va yoshi ulug' ekanini e'tirof etgan: "Barmoq vazni" butun turklar uchun-da, biz o'zbeklar uchun-da milliy vazndir, musulmonlardan burun butun turk shoirlar shul barmoq vazni bilan tizimlar, she'rlar yozar edilar"[19, B.190]. Ushbu fikrlarga tayangan holda aytilish mumkinki, o'tgan asrlarda ham barmoq vazni o'zbek she'riy matnlarida yuksak ahamiyatga ega bo'lgan.

Xulosalar. She'riy matnga lingvopoetik jihatdan murakkab, ko'p qatlamli va o'ziga xos badiiy tizimga ega bo'lgan nutq shakli sifatida qaraladi. Uning shakllanishi va estetik ta'sir kuchi nafaqat til birliklarining tanlanishi, balki ularning o'zaro uyg'unlashuvi, ritmik tuzilishi, shuningdek, ma'no ifodalash imkoniyatlari bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, she'riy matnning boshqa nutq uslublaridan ajralib turuvchi asosiy farqi uning maxsus ritmik tashkiloti, vazn tizimi va musiqiy ohangdorligida namoyon bo'lishidadir. Aynan shu jihatlar she'riy nutqni badiiy uslubning eng yuksak va estetik jihatdan mukammal ko'rinishlaridan biriga aylantiradi. Shuningdek, she'riy matnning lingvopoetik xususiyatlari hissiy-bo'yoqdorlik, obrazlilik, yashirin ma'nolilik, modallik va intertekstuallik kabi komponentlar orqali yuzaga chiqadi. Bu unsurlar kitobxon ongida badiiy tasavvur va hissiy-emotsional ta'sirni kuchaytirib,

matnning estetik qiymatini oshirib boradi. Ritm, intonatsiya hamda vazn she'riy matnning strukturaviy asosi tashkilotchisi sifatida uning ichki musiqiyiligini ham ta'minlab keladi. Jahon she'riyatida mavjud sillabik, metrik, tonik va sillabo-tonik tizimlar orasida o'zbek she'riyati asosan sillabik (barmoq) tizimga tayanishi bilan ajralib turishi ham ahamiyatlidir. Bu esa milliy she'riy an'ananing lingvopoetik xususiyatlarini yanada yaqqol namoyon etadi. She'riy matni lingvopoetik jihatdan o'rganish stilistika, poetika va tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, badiiy matnning ichki mexanizmlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Shu bois she'riy matnning lingvopoetik tahlili nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Budagov R.A. Введение в науку о языке. – Москва: Высшая школа, 1965. – 350 с.
2. Грот Y. Русское правописание. – Санкт-Петербург: Императорская Академия наук, 1885. – 204 с.
3. Torsuyev G.P. Интонация и смысл в языке. – Москва: Наука, 1979. – 240 с.
4. Vinogradov V.V. Проблемы русской стилистики. – Москва: Наука, 1963. – 420 с.
5. **Adrish D.** Rhythm and Meaning in Poetry. – London: Oxford University Press, 1998. – 240 p.
6. Agrawal S. Poetry. – Registrar, MP Bhoj (Open) University, 2020. – P. 6.
7. Bridget A., Adaobi M. Introduction to poetry. – National open university of Nigeria, 2006. – P. 37
8. Cuddon J.A. A dictionary of Literary Terms and Literary Theory. – USA: A John Wiley & Sons, Ltd., Publication, 2013. – 367 P.
9. Aristotel. Poetika. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – B. 16.
10. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of Literary Text. – Tashkent: Tafakkur Qanoti, 2013. – 204 p.
11. Boboyev T. O'zbek adabiy tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2002. – 280 b.

NUKUS MARKAZLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934